



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 28-noyabr

685-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shahar atrofi va viloyat ichi shaharlararo muntazam avtobus yo‘nalishlarida ko‘rilgan zararlarni qoplab berish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-oktabrdagi 718-son qarori ijrosi haqida”gi 570-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shahar atrofi va viloyat ichi shaharlararo muntazam avtobus yo‘nalishlarida ko‘rilgan zararlarni qoplab berish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-oktabrdagi 718-son qarori va Namangan viloyat hokimining 2024-yil 26-noyabrdagi 570-6-0-Q/24-son qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Shaharlar va boshqa aholi punktlari ko‘chalari hamda ichki xo‘jalik yo‘llari infratuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 30-oktabrdagi 718-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 570-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

quyidagilarni nazarda tutuvchi Shahar atrofi va viloyat ichi shaharlararo norentabel muntazam avtobus yo‘nalishlarida ko‘rilgan zararlarni qoplab berish davlat xizmatini ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti (keyingi o‘rinlarda – Ma‘muriy reglament) ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi:

tashuvchilarning shahar atrofi va viloyat ichi shaharlararo norentabel muntazam avtobus yo‘nalishlarida ko‘rilgan zararlarni qoplab berish;

norentabel avtobus yo‘nalishlaridan ko‘rilgan zararlarni qoplash bo‘yicha murojaatlarini ko‘rib chiqish;

norentabel avtobus yo‘nalishlariga subsidiya ajratish tartibi va shartlari;

Transport vazirligi Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan birgalikda 2024-yil 25-dekabrga qadar:

Ma‘muriy reglamentga muvofiq davlat xizmatlarining O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o‘rinlarda - YAIDXP) orqali joriy etilishini;

YAIDXPda davlat xizmatlari ko'rsatilishining har bir bosqichida murojaatlarning ko'rib chiqilishi kuzatib borilishini ta'minlashi;

belgilanishicha:

Ma'muriy reglamentga muvofiq tashuvchilar shahar va viloyat ichi shaharlararo norentabel muntazam avtobus yo'nalishlarida ko'rilgan zararlarni qoplab berish yuzasidan YAIDXP orqali 2025-yil 1-fevraldan boshlab murojaat qilishlari;

shahar va viloyat ichi shaharlararo norentabel muntazam avtobus yo'nalishlarida ko'rilgan zararlarni qoplab berishda talab etiladigan ma'lumotlarni (hujjatlarni) ko'rib chiqish uchun yig'im undirilmasligi;

Vazirlar Mahkamasining "Hududlarda jamoat transporti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 8-oktabrdagi 630-son qarorining 6-bandi quyidagi mazmundagi xatboshi bilan:

"Bunda mazkur qarorning 4 va 6-bandlarida nazarda tutilgan shahar atrofi yoki viloyat ichidagi shaharlararo avtobus yo'nalishida ko'riladigan zarar miqdori Qoraqalpog'iston Respublikasi hududi uchun, istisno tariqasida, 40 foizgacha (40 foiz ham shu jumlagi kiradi) miqdorda qoplab beriladi" deb to'ldirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov